



“KO’NGILLARNI JUMBUSHGA KELTIRGAN FURQAT”

Murodboyeva Gulshoda

TAQU talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o’zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri — Zokirjon Furqatning hayoti, ijodiy merosi, ma’rifatparvarlik faoliyati hamda uning o’zbek ijtimoiy fikriga ta’siri yoritilgan. Shoирning hayot yo’li, xalq xizmatidagi faoliyati, xorijiy sayohatlari davomida yaratgan asarlari, ayniqsa, vatansizlik iztiroblarini ifodalagan she’riyati tahlil etilgan. Maqola zamonaviy tadqiqotlar va ilgari kam yoritilgan tarixiy ma’lumotlar asosida tayyorlangan bo’lib, Furqat ijodining dolzarbliji va hozirgi davrdagi ahamiyatini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *sayohatnomma, Hajnoma, vatansizlik, mumtoz, Yorkent*

Zokirjon Furqat: O’zbek Ma’rifatparvarligi va Adabiyotining Yangi Ufqlari

Zokirjon Mullo Holmuhammad o‘g‘li Furqat (1859–1909) – o’zbek adabiyoti tarixida taraqqiyat parvarlik, ma’rifatparvarlik va ijtimoiy ong uyg‘onishining yorqin namoyandasasi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning ijodi va hayoti o’zbek xalqining mustamlaka davridagi ijtimoiy-siyosiy holatini, madaniy-ma’rifiy harakatlarini va milliy o‘zlikni anglash jarayonini aks ettiradi.

Ilk hayoti va ilmiy shakllanishi

Furqat 1859 yilda Qo‘qonda tug‘ilgan. Mahalliy mакtabda savod chiqargan, mudarris va kotiblardan xattotlik, arab tilini o‘rgangan. 1873–1876 yillarda madrasada tahsil olib, Alisher Navoiy ijodini, fors adabiyoti namoyandalari merosini chuqr o‘rgangan, fors tilini mukammal o‘zlashtirgan.

1876 yilda Yangi Marg‘ilonga borib, savdo ishlarida tog‘asiga yordam bergen, keyinchalik o‘zi ham kichik do‘kon ochgan. Bu davrda Furqat ijodiy faoliyatini boshlagan, o‘z g‘azallariga «Furqat» taxallusini qo‘yib, shuhrat qozona boshlagan. Yangi Marg‘ilonda o‘tkazilgan yillar uning xalqchil dunyoqarashi, ilg‘or adabiy-estetik tushunchalarining shakllanishida muhim bosqich bo‘lgan.

Ijodiy faoliyati va ma’rifatparvarlik g‘oyalari

Furqatning ijodi tur va mavzu, mazmun va shakl rang-barangligi jihatidan diqqatga sazovor. U mumtoz she’riyat an’analari ruhida ko‘plab ishqiy g‘azallar, muxammaslar yaratgan. Alisher Navoiy asarlariga nazira va taxmislari bog‘lagan. Shoир ijodida ijtimoiy ruh va zamonaviylik tobora keng o‘rin egallay boshlagan. Masalan, «Bo‘ldi» radifli muxammasi va boshqa she’rlarida xalqning siyosiy huquqsizligi va iqtisodiy nochor ahvoldidan qayg‘urgan.

Furqat Toshkentda rus ziyolilari, yevropacha hayot tarzi bilan tanishdi. Chor ma’murlari shoирni teatr, gimnaziya, turli kontsertlarga olib bordilar, ko‘rgazmalarga



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

olib bordilar. Yangi tarixiy sharoit tufayli yuz bergan o‘zgarishlarni mushohada etish natijasida Furqat dunyoqarashida jiddiy o‘zgarish bo‘ldi va bu hol uning ijodida o‘z badiiy ifodasini topdi — ma’rifatparvarlik, yevropacha ilm-madaniyat, fan-texnikaga xayrixohlik shoir she’rlarining yetakchi g‘oyasiga aylana bordi. Bu esa Furqatning ko‘p asrli o‘zbek adabiyotiga yangi mavzular, yangi g‘oyalar olib kirishiga zamin bo‘ldi.

Sayohatlari va vatan sog‘inchi

Furqat 1891 yilda Samarqandga jo‘nab, shahar fozillaridan Mirzo Buxoriy hovlisida yashab, qadimiy obidalar bilan tanishdi, gazetaga xabarlar yo‘lladi. So‘ngra Buxoroga o‘tdi. 1891 yil iyul oyi oxirlarida esa chet el sayohatiga chiqib, Marv-Ashxobod-Boku-Botumi orqali noyabr oyida Istanbulga bordi. Istanbuldan Bulg‘oriya va Yunonistonga qisqa muddatli sayohat uyushtirib, Bolqon yarim orolining qator shaharlarida bo‘ldi. Shu kezlarda yaratilgan “Rumolik qiz hikoyati” (“Yunon mulkida bir afsona”)da vatanni qo‘msash, unga talpinish mavzui romantik-sarguzasht bo‘yoqlarda juda ta’sirchan ifodalangan.

Furqat 1892 yil martida Istanbuldan O‘rtal yer dengizi orqali Arabistonga o‘tib, Makkada haj ziyoratini bajo aylab, Jidda, Madina shaharlarida bo‘ldi. Shu ziyorat munosabati bilan uning “Hajnama” asari maydonga keldi. Makka ziyoratini tugatgach, Furqat Bombeyga kelib, Hindistonning qator qishloq-shaharlariga sayohatlar uyshtirdi. Shoirning bu davrda yaratgan barcha asarlarida nasriy va nazmiy maktublarida ona yurt sog‘inchi va vatanparvarlik g‘oyalari yetakchilik qildi. Bu jihatdan, ayniqsa, “Adashganman” radifli lirik she’rlar turkumi alohida ajralib turadi.

Yorkentdag'i hayoti va vafoti

Furqat 1893 yili martida Kashmir-Tibet orqali uyg‘ur o‘lkasiga keladi. Yorkentda turg‘un bo‘lib qoladi. Furqat doimo Vatanga qaytish umidi bilan yashadi, bu intilish uning ko‘plab badiiy asarlarida, xat-xabarlarida ham o‘z ifodasini topgan. “Vatanning ishtiyoqini tortaram g‘urbat g‘ami birlan”, deb yozgan shoir umrining so‘nggi kunlariga qadar o‘z yurtiga qaytish ilinjida yashadi, shu bois uning fuqaroligidan chiqmadi. Furqat Yorkentda dorivor o‘simliklar bilan savdo qiluvchi kichik do‘kon ochdi. Asosan esa ijodiy ish va xattotlik bilan shug‘ullandi.

Shoir 1909 yilda Yorkentda vafot etgan. 1990 yilda shoir qabri ustiga maqbara qurilgan.

Zokirjon Furqat o‘zbek adabiyotida ma’rifatparvarlik, ijtimoiy ong va milliy o‘zlikni anglash yo‘lida muhim hissa qo‘shgan shoirdir. Uning ijodi o‘zbek xalqining mustamlaka davridagi ijtimoiy-siyosiy holatini, madaniy-ma’rifiy harakatlarini va milliy o‘zlikni anglash jarayonini aks ettiradi. Furqatning asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, ularning o‘rganilishi va targ‘ib etilishi yosh avlodning ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Furqat (1859-1909) – ziyouz.com
2. Furqat haqida bat afsil ma'lumotlar, tarjimai hol – sirlar.uz
3. Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat Hayoti va Ijodi – tafakkur.net
4. Sh.MUNIS, Z. FURQAT VA A.O'TAR ASARLARIDA ILM-MA'RIFAT, TA'LIM MASALALARI – ilmiybaza.uz
5. Furqat – malumot.ru
6. Furqat – uzsmart.uz

